

## Ona yurt tabiatи

O'zbekistonda, shu jumladan Qoraqalpog'istonda tabiatga g'amxo'rlik masalalari katta ahamiyatga ega. O'zbekiston nafaqat o'zining noyob madaniy va tarixiy merosi, balki ekotizimlarining xilma-xilligi bilan ham tanilgan. O'simlik va hayvonot dunyosi turlarining xilma-xilligi ekotizimlarning holatiga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda hayvonlarning biologik xilma-xilligini saqlash muhim va dolzarb vazifadir. Ilgari Janubiy Orol dengizi mintaqasi Markaziy Osiyodagi eng yirik delta zonasи bo'lган.



O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'llimi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari va doktorantlari Ustyurt platosiga (Sayg'oqchi qo'riqxonasi hududiga) ekspeditsiyasi uyushtirdilar.



Sayg'oqchi davlat tabiat qo'riqxonasi maydoni 628,300,0 hektar, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot va Mo'yinoq tumanidagi Ustyurt platosining Qoraqalpoq qismining shimoliy qismida joylashgan.

Ekspeditsiya davomida *Salsola arbusculiformis*, *Atraphaxis spinosa* va *Artemisia terrae-albae*, *Anabasis salsa* butalari Ustyurtning qoraqalpoq qismida katta rol o'ynashi aniqlandi.

So'nggi yillarda doimiy texnologik ta'sirlar natijasida katta maydonlar tanazzulga yuz tutdi. Ustyurt sharoitida faqat shimoliy qismida toza boyalishzorlar hosil bo'ldi. Tabiiy o'simlik qoplami asosan bijurgun, shuvoq, do'lana va cheklangan miqdordagi qora saksovul jamoalaridan iborat. Ushbu geobotanik rayonda boyalishzor jamoasi 55-60%, shuvoqzorlar 20-25%, buyurg'unzorlar 10-15%, qora saksovulzorlar 3-5% maydonni egallaydi. O't o'simliklar esa alohida jamoa hosil qilmaydi, ular boyalishzorlar va shuvoqzorlar ichida cheklangan (kam) miqdorda uchraydi.

Hayvonot dunyosi quyidagi turlar bilan ifodalanadi: O'rta Osiyo toshbaqasi *Agrionemys horsfieldi*, taqir to'garakboshi *Phynocephalus helioscopus*, dasht agamasi *Trapelus sanguinolentus*, Stsink gekkonii *Teratoscincus skincus*, tez kaltakesakcha *Eremias velox*, Tamarisk qumsichqoni *Meriones tamariscinus*, tulki *Vulpes vulpes*, Qorsak *Vulpes corsac*, dasht mushugi *Felis libyca*, bo'ri *Canis lupus*, yovvoyi cho'chqa *Sus scrofa*, sayg'oq tatarica va boshqalar.





Shunday qilib, migratsiya yo'llari va hayvonlarning qishlash joylarini ekologik monitoringini amalga oshirishga imkon beradigan innovatsion ilmiy texnologiyalar asosida yangi tashkil etilgan transchegaraviy qo'riqlanadigan hududlarni yosh mutaxassislar tayyorlash va ekologik turizmni yanada rivojlantirish uchun tadqiqot bazasi sifatida qo'llash zarur deb hisoblaymiz.

**Svetlana Mambetullayeva,**  
**O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'lumi**  
***Tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rindbosari.***